UO‘K 28-284:28-262:331

ISLOM TA’LIMOTIDA KASBIY MUKAMMALLIK TAMOYILLARI

D.A. Sobirov

Maqolada kasbiy mukammallik tushunchasi islom qadriyatlari va ma’naviyati bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Ruhiy-ma’naviy yetuklik ishlab chiqarilayotgan moddiy va ma’naviy mahsulotlarning sifatiga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Ma’naviy sifatlarning mehnat munosabatlaridagi ahamiyati manbalar asosida o‘rganilgan. Islom ta’limoti ishchidan kasbiy professionallikni talab qilishi Qur’on oyatlari va hadislar asosida isbotlab berilgan. Kasbiy mahorat islomning aqidaviy asoslarida mavjudligi, professionallik “itqon” va “ehson” tamoyillarida mujassamligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *professionallik, kasbiy yetuklik, intizom, izchillik, mas’uliyat, “itqon” va “ehson”.*

В статье анализируется концепция профессионализма в тесной связи с исламскими ценностями и духовностью. Духовно-нравственное совершенсво является важнейшим фактором, определяющим качество производимых материальных и духовных продуктов. На основе источников освещается значение духовных качеств в трудовых отношениях. На основе аятов Корана и хадисов доказано, что ислам требует от работника профессионализма. Обстоятельно изложено, что понятие профессионализма присутствует в божественных основах ислама, что оно воплощено в принципах «иткан» и «ихсан».

Ключевые слова: *профессионализм, профессиональная зрелость, дисциплина, последовательность, ответственность, “иткан” и “ихсан”.*

Kirish

Iqtisodiy taraqqiyot, ishlab chiqarishdagi raqobat va jamiyatning farovonlikka intilish jarayonlari hech bir zamonda bugungidek namoyon bo‘lmagan. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari jahon mamlakatlari miqyosida turlichadir. Buning tarixiy, mintaqaviy, siyosiy-iqtisodiy sabablari va obyektiv va subyektiv omillari bor. Bu jarayonlarning birinchi navbatda ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ruhiy tomonlarini inobatga olish zarur. Shundan kelib chiqib, jamiyatning ma’naviy, siyosiy va, albatta, iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biri jamiyat kishilarining mehnatga bo‘lgan munosabatlaridir.

Qayd etganimizdek, iqtisodiy barqarorlik jahon mamlakatlarida turlicha. Ma’lumki, iqtisodiy barqaror mamlakatlar G‘arbiy Yevropa, Janubi-sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Mintaqaviy joylashuvi qulay, tabiiy resurslarga boy mamlakatlar, aksincha, qashshoq ekanligi ma’lum. Albatta, bunga sabab avvalo mazkur mamlakatlarning mustamlakachi davlatlar tomonidan bosib olinganligi, iqtisodiy qaram davlatga aylantirilganidir. Bugungi kunda kolonial tizimlar barbod bo‘ldi, siyosiy mustaqil bo‘lgan davlatlar vujudga keldi. Ammo jamiyatlarning ijtimoiy ongi o‘zgarishi, ma’naviy muhitning yangilanishi sekin amalga oshmoqda yoki butunlay boshqa yo‘nalishga burilgan. Jamiyat kishilarining dunyoqarashi ayni jamiyatda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy taraqqiyot darajasi ko‘tarilishida diniy-ma’naviy omillarni, qadriyatlar, xususan, islom ta’limotining mehnat munosabatlariga ta’sirini tadqiq etish dolzarb muammolardan sanaladi.

Material va usullar

Maqolada qo‘yilgan muammo Qur’oni Karim, hadisi shariflar va islom olimlari Jaloliddin Suyutiyning “Jome’ as-sag‘ir”, Kattoniyning “Tarotib ul-idoriyya” hamda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri hilol”, “Hadis va hayot” asarlari asosida o‘rganildi.

Muammoni tadqiq etishda ilmiy bilishning analiz va sintez, qiyoslash usullaridan, mantiqiylik va tarixiylik, obyektiv yondashuv prinsiplaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Kasbiy yetuklik, professionallik, ishlab chiqarilgan mahsulot va yaratilgan moddiy ne'matlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirida diniy omilini hisobga olish zarur. Dunyoning konfessional manzarasini ko'z oldimizga keltirsak, musulmonlar ulushi ancha yuqori. Buning aksi o'laroq musulmonlar yashaydigan hududlar iqtisodiy barqaror emas, yoki qashshoqlik darajasida. Bu holatni kuzatgan ba'zi tadqiqotchilar diniy dunyoqarash, aniqroq qilib aytganda, islom dini jamiyatning moddiy taraqqiyotiga to'siq bo'lmoqda, degan fikrni ilgari surmoqdalar. Bir qarashda bu fikrda jon bordek. Chunki Yevropada sekulyarizatsiya jarayonlariga avvalroq qadam qo'ygan davlatlar texnologik jihatdan boshqalarga nisbatan ilgarilab ketdi. Osiyo mamlakatlari, xususan, islom diniga e'tiqod qiladigan xalqlarda bu jarayon kech boshlandi. Ayni paytda mazkur mintaqalar iqtisodiy qoloq jamiyatlarga aylandi. Ammo bu o'rinda O'rta asrlar Yevropasida taraqqiyotga va ilmiy-texnik rivojlanishga to'siq bo'layotgan tizim bu xristian katolik cherkovi tizmi ekanligini e'tibordan qochirmaslik kerak. Cherkov dunyoqarashi butunboshli diniy aqidalar mohiyatini anglatmaydi. Tarixiy dunyo sivilizatsiyalarida diniy omil doimo jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, mafkura vazifasini o'tagan. Diniy tafakkurni rivojlanishi ayni paytdagi jamiyatning mafkuraviy yangilanishi hisoblangan. Bu yerdagi yana bir jihat diniy aqidalarni mutlaqlashtirish va uning ortidan kelib chiqadigan salbiy jarayonlardir. Bizningcha, ayni shu holat tufayli katolik cherkovi mafkurasi Yevropa jamiyati taraqqiyotiga salbiy ta'sir qildi. Bu diniy islohotlar qilinishiga olib keldi. Yevropa uchun yangilangan diniy mafkura – xristian protestantizmi vujudga keldi. Nemis sotsiologi va faylasufi Maks Veberning (1864–1920) "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" ("Die protestantische Ethik und der "Geist" des Kapitalismus", 1905) asarida protestantlik yo'nalishida ilgari surilgan tamoyillar iqtisodiy o'sish omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

Shu fikrlardan kelib chiqib iqtisodiy taraqqiyot va kuchli raqobat muhitida islomning mehnat axloqiga munosabati va kasbiy mahorat to'g'risidagi tamoyillarini tadqiq qilish va jamiyatga amaliy yo'naltirish zarur deb hisoblaymiz.

XXI asr dunyosida o'z o'rniga ega bo'lish uchun mehnat munosabatlarida professionallik va mukammallik talab etiladi. Masalan, bu mavzuda so'z ochilsa, yaponiyaliklar o'z ishlarini qanday bajarishlari yoki Amerika va G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi ishchilar o'z kasbiy vazifalarini qanday bajarishlari haqidagi odatiy fikrlar o'rtaga chiqadi. Bu mamlakatlar aholisidan muhim saboq olish va islomda kasbiy mahorat-professionallik tamoyillari qaydarajada muhim ekanligiga ahamiyat qaratish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, "yaxshi mehnat" va "mehnatda mukammallik" islomning eng muhim tamoyillaridandir [1. B. 1].

Professionallikning lug'aviy tavsifi – daromad yoki tirikchilik uchun kasb qilish, shuningdek, professional shaxsni tavsiflovchi yoki belgilovchi xulq-atvor, maqsad yoki fazilatlar majmuasidir [2]. Shu bilan birga, professionallik deganda shaxsga biror narsa qilishning tashkiliy usuli sifatida ko'rinadigan, me'yoriy belgilangan xususiyatga ega bo'lgan murakkab faoliyat tushuniladi. Professionallik obyektiv jihatdan murakkab, shuning uchun uni o'zlashtirish qiyin va uzoq vaqt nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Natijada bu faoliyat kasbga aylanadi va moddiy mukofotni nazarda tutadi [3].

Hozirgi davrda inson faoliyati turlari juda ko'p. Ularning soni inson ehtiyojlari soniga teng. Faoliyatning eng keng tarqalgani va muhimi – mehnat faoliyati. Mehnat faoliyatining muhim qismi esa kasbiy faoliyatdir. Kasbiy faoliyat natijali bo'lishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Buning uchun avval nazariy bilimlarni egallash, tajribaga ega bo'lish kerak. Nazariy bilimlarsiz va vaqtinchalik mashg'ulotni kasbiy faoliyat deb bo'lmaydi. Biz ma'lum mashg'ulotlarni bajarishimiz mumkin, lekin uni o'z ustasi bajarsa, mukammal natijaga olib keladi. Kasbiy faoliyat davomida professionallik yuzaga chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'lum bir mashg'ulotning kasbga aylanishi ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Muayyan kasbni egallagan shaxs albatta professionallikka ega bo'lishi lozim. Professionallik jarayoni esa kasbiy faoliyat bilan bog'liq.

Professionallikka turli fan sohalaridan kelib chiqib yondashish va uni shunga ko'ra ta'riflash mumkin. Masalan, professionallikka iqtisodiy, sotsiologik jihatdan berilgan ta'riflar psixologik va axloqshunoslikda berilgan ta'riflardan farq qiladi. Umuman olganda, professionallikka yagona ta'rifni keltirish qiyin. Ayniqsa, psixologiya sohasida professionallik tushunchasiga oid ko'plab qarashlar ilgari surilgan. Ana shu qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, professionallik – tanlangan kasb sohasida shaxsning o'zini o'zi anglashini tavsiflovchi faqat psixologik sifatdir [4. B. 52] .

Professionallik – shaxs hayoti davomidagi bevosita uzluksiz faoliyat mahsulidir. O'rta asrlar Yevropasida professionallik to'laqonli namoyon bo'lmagan. Chunki bu tushunchani anglatadigan tamoyillar mavjud emas edi. Professionallik insonning dunyoga kelishi bilan bir tabaqada uzatiladigan sifati edi. Yevropada kapitalizm rivojlanishi bilan jamiyat a'zola-

rining kasbga munosabatlari o‘zgardi. Ma’lum bir kasblarni erkin tanlash va shu kasblarni rivojlantirish orqali foyda olish ko‘nikmalari vujudga keldi. F.Bekon falsafasi nuqtayi nazari bilan aytganda, eksperimental ish tajriba ko‘nikmalari sanoat inqilobi madaniyatini yaratadi. Bu jarayonlar davrning yangi ehtiyojini, shaxsning ma’lum bir turiga, ya’ni professionalga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ijrochi va professional dixotomiya chegarasi shaxsning yangi turdagi tajribani ya’ni, ilg‘or usullarni ishlab chiqarishga joriy qila olishida ko‘rinadi. [4. B. 53]. Kasbiy faoliyat bilan professionallik odatda bir xil jarayonda sodir bo‘ladi.

Buni quyidagicha tartiblash mumkin: faoliyat – mehnat faoliyati – kasbiy faoliyat – professionallik – kasb.

“Ma’lum bir kasbning egasiman” deya olish “Men bu sohada mukammalman” deganidir. Bu, albatta, ulkan mas’uliyat hisoblanadi. O‘z o‘rnida bu da’vo ma’naviy, ta’bir joiz bo‘lsa, e’tiqodiy asoslarni keltirib chiqaradi. Biz aytmoqchi bo‘lgan fikr, mehnat munosabatlarida kasbiy mukammallikni ta’minlashda ruhiy va ma’naviy omillarni hisobga olish zarurligidir. Ana shunda mukammal kasb egasi tarbiyalanadi. Kasbga ega bo‘lish faqat moddiy manfaat ustiga qurilgan bo‘lsa, u jamiyatga, qolaversa, insoniyatga zarar beradigan, tabiat va jamiyatni halokatga olib boradigan omilga aylanadi. Kasbiylikning mohiyati individual va tashkiliy samaradorlik nuqtayi nazaridan mukammallikka intilish hamda samaradorlikni oshirish maqsadida tizimli va jiddiy harakatlar qilishdir.

Kasbiy faoliyat va professionallikka erishishda islom ta’limotida qanday qadriyat va tamoyillar mavjud ekanligiga e’tibor qaratish lozimligini ko‘rib chiqamiz.

Bunda quyidagilar alohida belgilab olindi:

1. Allohga “abd” – to‘laqonli bo‘ysunish.
2. Niyatni to‘g‘ri qilish.
3. Alloh insonni yerda xalifa-o‘rinbosar qilganini yodda tutish.
4. Vaqtni qadrlash.
5. Intizom.
6. Izchillik
7. Mas’uliyat.
8. “Itqon” va “ehson”.

Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillar, ayni paytda musulmon shaxsining ajralmas qismidir. Inson dunyoda yashashi uchun tirikchilik vositasi – kasbga muhtoj. Kasb inson zotining ajralmas qismi. Mehnat faoliyatisiz inson jamiyatda o‘rnini, mavjudligini yo‘qotadi.

1. Qur’oni karimning “Zaariyaat” surasi 56-oyatining mazmuni quyidagicha: “Jin va insni faqatgina Menga ibodat qilishlari uchun yaratdim”. Zamonamiz tafsir olimlaridan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning yozishlaricha, “ko‘pgina islomiy tushunchalar qatori, ibodat tushunchasida ham xatolar sodir bo‘lgan. Oqibatda hozirgi kunimizda “ibodat” deganda kishilar ongida namoz, ro‘za, qiroat, zikr kabi narsalargina namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, mazkur amallar ulkan ibodatlardir, bularsiz Islomni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Holbuki, boshqa oyatlarda Alloh taolo bandalarini yer yuzini obod qilishga, oila qurishga va boshqa ishlarga buyurgan. Insonni O‘zining yer yuzidagi xalifasi (o‘rinbosari) deb e’lon qilgan. Demak, “ibodat” ma’nosining boshqacha talqini ham bo‘lishi kerak. “Ibodat” so‘zi arab tilida “bo‘ysunish”, “o‘zini past tutish”, “itoat etish” va “amrni bajarish” degan ma’nolarni bildiradi. Demak, har bir ishda Allohga bo‘ysunish, itoat qilish, Allohning amrlarini bajarish, huzurida o‘zini past olish Allohga ibodat qilishni anglatar ekan. Ulamolar istilohida esa Allohga yaqinlik hosil qilish uchun qilinadigan har bir ish ibodatdir. Alohida ta’kidlab aytmoq lozimki, namoz, ro‘za, haj, zakot kabi ibodatlar Islomning negizini tashkil etadigan ulkan ibodatlardir. Bularsiz inson musulmon bo‘lishi qiyin. Bu yerda xato “ibodat” ma’nosini faqat mazkur amallarga bog‘lab qo‘yishdadir. Shuning uchun odam namoz o‘qiyotganida o‘zini Allohning huzurida his qiladi-yu, kasb bilan shug‘ullanayotganida o‘zini Allohga noma’qul ish qilayotgandek his qiladi. Ibodat ma’nosini to‘g‘ri tushunadigan bo‘lsak, bu hozirgidan keng va komil tushuncha ekani ma’lum bo‘ladi” [5. B. 606].

2. Kasbni ibodat darajasiga olib chiqadigan amal niyatdir. Niyat islomning negizidagi tushunchadir. Hadisdagi “Amallar niyatga bog‘liqdir” [6. B. 8] jumlasi butun boshli islom ruhiyatini o‘zida jamlagan. Chunki niyat inson ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan. Niyat insonning o‘ziga va Yaratgangagina ma’lum bo‘lgan sirdir. Ana shu niyat orqali inson qilayotgan kasbi orqali savob oladi, ibodatda turgan hisoblanadi. Namoz o‘qiyotganda qanday ruhiy holatda bo‘lish talab qilinsa, qabuliga kelgan bemorni ko‘rikdan o‘tkazayotgan shifokorda ham, ta’lim berayotgan pedagogda ham, bino qurayotgan quruvchida ham ana shu ruhiyat mavjud bo‘lishi lozim. Islomda niyat tushunchasi g‘alabaga erishishdagi eng oliy ustunlikni beradi. Niyat insonga to‘g‘ri maqsad qo‘yishni, to‘g‘ri harakat qilishni va tez muvaffaqiyatga erishishni o‘rgatadi.

3. Alloh insonni yerda xalifa-o‘rinbosar qilganini yodda tutish. Buni anglagan inson hayoti tom ma’noda mukammallik kasb qiladi. Qur’oni karimning “Sod” surasi 26-oyatida, “Baqara” surasining 30-oyatida, “Naml” surasining 62-oyatida “An’om” surasining 165-oyatida, “Zuhruf” surasining 60-oyatida, “Maryam” surasining 59-oyatida insonni “o‘rinbosar” deb marhamat qilingan. Bu katta maqom va shu bilan birga insonga oliy mas’uliyatni ham yuk-

laydi. Shu ma'nodan kelib chiqib yondashilsa, inson har bir harakatida e'tiborli bo'lmog'i, maqomiga loyiq harakat qilmoqligi lobid. Bu maqomni musulmon shaxsi mehnat munosabatlarida ham nazardan qochirmasligi kerak.

4. Vaqtni boshqarish, uni to'g'ri tasarruf etish islom ta'limotida eng muhim g'oyalardan biridir. Buning sababi vaqt Yaratganning bebaho ne'mati ekanligidir. Vaqtdan inson o'z majburiyatlarini bajarish, shaxsiy va ma'naviy rivojlanishda foydalanishi kerak. Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar musulmonlarni vaqtdan oqilona foydalanishga, jamiyat uchun foydali maqsadlarni birinchi o'ringa qo'yishga hamda vaqtni qanday o'tkazishga e'tiborli bo'lishga chaqiradi. Qolaversa, musulmonlar vaqtning qadriga yetishga va eng yaxshi natijaga erishish uchun har daqiqadan unumli foydalanishga da'vat etiladi.

Qur'oni karimda qisqa oyatlardan iborat "Asr" (*asr* – "zamon", "vaqt" ma'nosida) surasi bor. Suraga uning birinchi oyatidagi so'z nom bo'lib qolgan. Bu sura kichik suralardan hisoblansa-da, katta mazmunni o'zida jamlagan. Ma'nosi quyidagicha: "1.Asr bilan qasam. 2.Albatta, inson xusrondadir. 3.Illo, iymon keltirganlar va solih amallar qilganlar, bir-birlarini haq yo'lga chaqirganlar va bir-birlarini sabrga chaqirganlar (undoq emasdir)" [7. B. 601]. Tafsir ilmiga ko'ra, Qur'oni karim suralarining biror narsa yoki hodisaga qasam bilan boshlanishi uning muhimligini bildiradi, e'tibor qaratishga undov hisobladi. Bu oyatda zamon va vaqtning o'ta muhimligiga diqqat qaratilyapti. Davomida esa insoniyat ziyonda, muvaffaqiyatsizlikda ekanligi, bunday bo'lmasligi uchun iymonli bo'lish hamda e'tiqodga yondosh solih amal zarurligi uqtiriladi. Solih amal tushunchasi juda ham keng qamrovli tushunchadir. Afsuski, hozirgi kunda solih amallar chegarasi ham o'ta toraytirib yuborilgan. Solih amal musulmonning abadiylikka to'laqonli daxldor vazifasidir. Solih amal vaqtinchalik yoki ma'lum bir davr uchun ahamiyatli bo'lmaydi. Musulmonning yaxshi ishi mukammal bo'lishi oxiratda ham unga foyda keltirishi zarur. Buning uchun u qilayotgan ishini o'ta puxta, ya'ni professional tarzda amalga oshirishi kerak.

5. Intizom. Ma'lumki, intizom deganda odatda erta uyg'onish, jadvalga rioya qilish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, intizom qoidalar majmuasidir. Biroq islom ta'limotida tartib-intizom oddiy kundalik rioya qilinadigan jadvaldagi yumushlardangina iborat emas. U avvalo e'tiqod va shaxsning ma'naviy rivojlanishi bilan chuqur bog'langan hayot tarzidir. Islom ta'limotida hayotning barcha jabhalarida, shuningdek, jamiyat a'zolari bilan munosabatlardan tortib, vaqt va moddiy resurslarni qanday boshqarishgacha intizomga da'vat etadi. Intizom insonning xarakterini shakllantirishga, ish jarayonida muvozanatni, jamoa a'zolari bilan hurmatni va diqqatni rivojlantirishga yordam beradi. Islomda intizom faqat ibodatlarni bajarishdan iborat emas. Albatta, unda intizom aniq ko'rsatilgan. Islom ta'limotiga ko'ra, intizom dunyo ishlaridagi samaradorlik va muvaffaqiyatning mohiyatida yotadi. Rasulullоh (s.a.v.) ummatlariga har safar tongda va kechqurun quyidagi duoni aytishni tavsiya qilgan: "Yo Alloh! Sendan ojizlikdan, dangasalikdan, qo'rqoqlikdan, qarib xor bo'lishdan, baxillikdan, qabr azobidan, tiriklik va o'lim fitnasidan panoh berishingni so'rayman" [6. B. 172]. Ojizllik – insonning o'zi qilishi kerak bo'lgan ishni qilolmayman deb o'ylashi. Dangasalik – odam o'zining qo'lidan keladigan va qilishi kerak bo'lgan ishni qilmasligidir. Bu ikki sifat intizomning ziddidir.

6. Izchillik. *Islom ta'limotiga ko'ra, amallarning yaxshisi davomli bo'lganidir. Oisha roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, Muhammad (s.a.v.): "Darhaqiqat, Alloh taolo uchun amallarning suyumlirog'i oz bo'lsa-da davomli bo'lganidir", deganlar [6. B. 19]. Oisha roziyallohu anhadan yana quyidagilar rivoyat qilinadi: "Rasulullоh (s.a.v.) ning amallari doimiy edi", deganlar [11. B. 478]. Maqsadga olib boradigan kichik qismlarning ketma-ket tarmog'i mavjud emasligi mehnat samradorligini yo'qqa chiqaradi. Islom ta'limotida kichik qadamlar g'oyasi muhim o'rin tutadi: "Allohga eng sevimli amal, uni bajaruvchining oz bo'lsa ham davom ettiradigan amalidir"* [11. B. 1609]. *Islom shariatida ibodat amallari, hatto taqiq qoidalari ham bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Musulmon kishi mehnat faoliyatida ham izchillikka rioya qilishi kerak.*

7. Mas'uliyat tushunchasi islom ta'limotining mohiyatida asosiy o'rin tutadi. Mazkur ta'limotga ko'ra, har bir shaxs Allohning nazoratidadir. Har bir kishi Unga yuzlanadi va qiyomat kunida shaxsan hisob beradi. Qur'oni Karimning "Fotir" surasi 18-oyati mazmuni quyidagicha: "O'zi yukli jon o'zga jonning yukini ko'tara olmas. Yuki og'ir jon o'z yukiga (boshqani) chaqirsa-da, undan hech bir narsa ko'tarilmas" [7. B. 436]. Bu tamoyilni mehnat munosabatlarida shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari bilan bog'lab tushunish mumkin. Mehnat va kasbiy faoliyat inson hayotining asosini tashkil qilishini hisobga olsak, bu faoliyatni mas'uliyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qur'oni Karimda har bir kishi o'z qilmishi uchun mas'ul ekanligi va qiyomat kunida o'zi uchun javob berishi aniq ko'rsatilgan. "Isro" surasining 13-oyati mazmuni quyidagicha: "Har bir insonning amalini bo'yniga bog'lab qo'yganmiz va qiyomat kuni unga bir kitob chiqaramizki, u unga ochilgan holda ro'baro' bo'lur" [7. B. 283]. Bu oyatda har bir insonning amali yozib qo'yilishi va qiyo-

matda o‘zi uchun hisob-kitob qilinishiga urg‘u berilgan. Hech kim o‘z qilmishining oqibatlaridan qochib qutula olmaydi. Bu konsepsiya ham shaxs, ham jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Individual darajada u shaxsiy mas’uliyat va javobgarlikning muhimligini ta’kidlaydi. Har bir inson qilgan ishiga faqat o‘zi javob berishini bilgan holda yaxshilikka intilishi, yomonlikdan saqlanmog‘i lozim. Shundan kelib chiqib, professional ishchi o‘z mehnat natijalari va mahsulotini shu talab asosida amalga oshirishi zarur. Hozirgi musulmon shaxsi mas’uliyatni islom ta’limotida bayon qilinganidek idrok etmoqda deb ayta olmaymiz. Bu holat mehnat faoliyatining natijadorligiga katta ta’sir qilmoqda.

8. Itqon va ehson. “Itqon” arabcha so‘z bo‘lib, “mohir”, “ishni mukammal qilish” degan ma’nolarni bildiradi. Hozirgi til bilan aytganda, professionallik demakdir.

Qur’oni Karim har bir shaxsni o‘z ishini puxta bajarishga undaydi. Bizningcha, bu mehnatning aynan muqaddaslik xususiyati bilan bog‘liqdir. Chunki ishlarni mahorat ila amalga oshirish Alloh taoloning sifatlaridandir. Hadislarda mo‘minning axloqi Qur’on ekanligi ta’kidlanganini hisobga olsak, masalaning mohiyati yanada oydinlashadi. **“Naml” surasi 88-oyati mazmuni fikrimizning dalilidir: “Tog‘larni ko‘rib, qimirlamay turibdi, deb hisoblaysan. Holbuki, ular bulutning o‘tishidek o‘turlar. Bu har bir narsani puxta qiladigan Allohning san’atidir. Albatta, U nima qilayotganingizdan o‘ta xabardordir” [8. B. 384].**

Jaloliddin Suyutiy o‘z kitoblarida keltirgan hadisda Muhammad (s.a.v.): “Alloh birortangiz biror ishni qilganda uni puxta qilishini yaxshi ko‘radi”, deganlar [6. B. 115]. Ma’lumki, islom ilmlaridan hadis ilmida hadislarni yetkazib keluvhchi roviylar zanjiri mavjud. Ularga bir qancha shartlar qo‘yiladi. Shartlar orasida xotirasi kuchli bo‘lgan, hadislarni yetkazishda mohir bo‘lganlari alohida ahamiyatli hisoblanadi. Ularni sifatlash uchun “mutqin” sifati beriladi. Mutqin hadisni esda saqlab qolishda eng kuchli xotira egasi va mohir roviydir. Bir so‘z bilan aytganda, professional. Roviyning mutqin bo‘lishi hadislarning sahihligida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Arabcha “ehson” so‘zi o‘zbek tilida “yaxshilik” degan ma’noni bildiradi. Biroq “ehson” biz tushunadigan “yaxshilik”dan ko‘ra kengroq ma’noga ega. Jabroil alayhissalom Muhammad (s.a.v.)dan “Ehson nima?” deb so‘raganlarida, Muhammad (s.a.v.): “Allohga U sizni ko‘rib turgandek ibodat qiling. Agar bunday qila olmasangiz, Alloh sizni ko‘rib turganidek ibodat qilishingizdir”, deb javob bergan. Bu holat katta ruhiy jarayon hisoblanadi. Musulmon shaxsi Yaratgan uni ko‘rib turganini his qilishi unga katta mas’uliyat, javobgarlik yuklaydi, faoliyatini chin yurakdan amalga oshirishini talab qiladi. Muhammad (s.a.v.): “Ishini yaxshi bajargan ishchini Alloh yaxshi ko‘radi”, deganlar [6. B. 115].

Xulosa

Yuqorida qayd etilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, “itqon” va “ehson” tushunchasi bugungi kun istilohi bilan aytganda professionallikdir. Allohga “abd-bandalik”, insonning yer yuzidagi “o‘rinbosarlik” maqomi, niyat, vaqtdan foydalanish, izchillik, intizom, mas’uliyat – bularning barchasi musulmon shaxsining mutqinlik va muhsinlik sifatlarida mujassamlanadi. Bu tamoyil mehnat munosabatlarining mukammal amalga oshirilishida va moddiy ne’matlar yaratilishida asosiy mezon bo‘lmog‘i shart. Bugungi musulmon jamiyati a’zolarining islom mohiyatini to‘g‘ri anglamaganliklari ularning asosiy quvvati islomni zohiriy ko‘rinishda tushunish va shu yo‘sinda harakat qilishga sarf etilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat, ularning, birinchi navbatda, o‘zlari jabr ko‘rishlariga olib keladi. Shuningdek, jamiyat va davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarida noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Natijada musulmon jamiyatlari bir sivilizatsiya o‘laroq globallashgan dunyoda o‘z nufuziga ega emas. Dunyoda muvaffaqiyatli yashash uchun dunyo ilmlarini o‘zlashtirish zarurati asosida, ma’naviy va moddiy resurslar, shuningdek, intellektual mahsulotlar professionallikni rivojlantirish, ertangi imkoniyatlar va kelajakka yo‘l ochish uchun muhim omillardir.

Adabiyotlar:

1. *Hasan Md*. Islam and Professionalism: In Search of Excellence. Onislam.net. 2013. [Online]. URL: https://www.researchgate.net (Date of Access: 01.03.2024).

2. Dictionary. professionalism. (elektron lug‘at) [Online]. URL: https// www.merriam-webster.com (Date of Access: 18.02.2024).

3. Карта слов и выражений русского языка. [Электронный ресурс]. URL: https://kartaslov.ru (Дата обращения: 01.02.2024).

4. *Долгих А. Н.* Феноменология профессионализма / Alter Idem. Феноменология реальности: конструкт и концепт. – Москва, 2009. – Вып. 2: – С. 52-56.
5. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф*. Тафсири ҳилол. 5-жуз. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 670 б.
6. *Jaloliddin Suyutiy*. Jome' as-sag'ir. Dor al-kutub al-ilmiyya. Bayrut-Lubnan. 1-2 juz. 2004. – 592 b.
7. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф*. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 604 б.
8. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф*. Тафсири Ҳилол. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 604 б.
9. *Sobirov D.* Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mas'uliyat masalalari. // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2023. – № 7. – B. 299–305.
10. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. И*жтимоий одоблар. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2013. – 455 б.
11. *Al-Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Isma'il al-Buxoriy*. Sahih al-Buxoriy. Dor ibn Kasiyr. Damashq-Bayrut, 2002. – 1994 b.

PRINCIPLES OF PROFESSIONAL EXCELLENCE IN ISLAMIC WORK ETHICS

Dilmurod A. Sobirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 5-11
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: professionalism, professional maturity, discipline, consistency, responsibility, "itkan" and "ihsan".

The article analyzes the concept of professionalism, that is, professional excellence, based on Islamic values and spirituality. In the process of labor relations, spiritual and moral growth is the key factor that determines the quality of the material and spiritual products produced and their significance for eternity. The article highlights, based on sources, the primary importance of spiritual development in labor relations. The fact that Islamic teachings demand professionalism from workers is proven through the verses of the Qur'an and hadiths. The article also analyzes, based on sources, the primary importance of spiritual perfection in human qualities within labor relations. The presence of professional skills in the divine foundations of Islam and the embodiment of professionalism in the principles of "Itqan" and "Ihsan" in Islam are discussed in detail.

*Purpose***.** The spiritual and moral outlook of societies is important in their production of material goods and achieving economic stability. Accordingly, the main object of research in achieving levels of economic development is religious and moral factors: values, in particular, the relationship of Islamic teachings to labor. It is necessary to take into account the religious factor in the impact of manufactured products and created material goods on the development of society.

In an environment of economic development and intense competition, it is necessary to study and apply the principles of Islamic work ethics and professional skills to society. To succeed in the 21st century world, professionalism and excellence in labor relations are required.

The idea we have in mind is to take into account the spiritual and moral factor in work and professional activities and professionalism. That's how a perfect professional is raised.

*Design/methodology/approach***.** The article explains that professionalism is in harmony with Islamic values, citing examples from the verses of the Holy Quran, hadiths, and the opinions of Islamic scholars. The study of the problem uses the methods of scientific knowledge: logic and historicity, analysis and synthesis, comparison, and the principle of an objective approach.

*Summary***.** The concept of "itqon" and "ehsan" is professionalism in today's terminology. "Servitude" to Allah, the status of a person's "vicegerency" on earth, intention, use of time, consistency, discipline, responsibility - all of these are embodied in the qualities of a person's "mutkin" and "muhsin". This principle must be the main criterion in the perfect

implementation of labor relations and the creation of material benefits. Due to the fact that members of today's Muslim society do not correctly understand the essence of Islam, their main energy is spent on understanding Islam in its outward form and acting in this way.

References:

1. Hasan, Md. (2013). *Islam and Professionalism: In Search of Excellence*. Onislam.net. [Online]. URL: https://www.researchgate.net (Date of Access: 01.03.2024).

2. *Dictionary. Professionalism*. (electronic dictionary). [Online]. URL: https// www.merriam-webster.com (Date of Access: 18.02.2024).

3. *Karta slov i vyrazhenij russkogo yazyka* [Map of Words and Expressions of the Russian Language]. [Online].URL: https://kartaslov.ru (Date of Access: 01.02.2024).

4. Dolgih, A.N. (2009). Fenomenologiya professionalizma [Phenomenology of professionalism]. *Alter Idem. Fenomenologiya realnosti: konstrukt i koncept*. [Phenomenology of reality: construct and concept]. Moscow. Issue. 2. Pp. 52-56.

5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2007). *Tafsiri hilol* [Tafsiri hilal]. Vol 5. Tashkent: Sharq.

6. Jaloliddin Suyutiy. (2004). *Jome' as-sag'ir* [Jame'as-sagir]. 1-2 volumes. Dor ul-kutub al-ilmiyya. Bayrut-Lubnan.

7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2008). *Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi* [Translation of the Holy Quran and its meanings in Uzbek]. Tashkent: Sharq.

8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2008). *Tafsiri hilol* [Tafsiri hilal] Tashkent: Sharq.

9. Sobirov, D. (2023) Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mas'uliyat masalalari [Issues of social responsibility in new Uzbekistan]. *Scientific Bulletin of NamSU*. No. 7. Pp. 299-305.

10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2013). *Ijtimoiy odoblar* [Social etiquette]. Tashkent: Hilol-Nashr.

11. Al-Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Isma'il al-Buxoriy (2002). *Sahih al-Buxoriy* [Sahih al-Buxoriy]. Dor ibn Kasiyr. Damashq-Bayrut.

Muallif haqida ma'lumot:

SOBIROV Dilmurod Abdulhakimovich – Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: smart_boy_and@mail.ru